

Prezident “Urgut” erkin iqtisodiy zonasidagi korxonalar faoliyati bilan tanishdi



Davlatimiz rahbarining 2017-yil 12-yanvardagi farmoniga asosan tashkil etilgan mazkur iqtisodiy zona mavjud xomashyo va infratuzilmadan samarali foydalanib, qishloq joylarda sanoatni rivojlantirish, ish o'rirlari ochishda muhim o'rinn tutmoqda.

Bugungi kunda “Urgut” erkin iqtisodiy zonasida qiymati 402 million dollarlikdan ziyod 84 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilmoqda. 313 million dollarlik 55 ta loyiha bo'yicha ishlab chiqarish boshlangan, ularda 4 ming 328 ta kishi mehnat qilmoqda. Ushbu korxonalar tomonidan gaz plitalari, yengil sanoat va charm-poyabzal tovarlari, gilamlar, gigiyena vositalari, elektr texnikasi buyumlari kabi 220 turdagи mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. 2020-yilda 1,2 trillion so'mlik mahsulot tayyorlanib, 30 million dollarlik eksport qilingan.

Davlatimiz rahbari iqtisodiy zona hududidagi “Kamalak Tekstil” korxonasi faoliyati bilan tanishdi. Urgut tumanining Mergancha massivida joylashgan ushu shirkatda gilam va tafting, kovrolan mahsulotlari, sintetik ip va sun'iy chim ishlab chiqarilmoqda.

Korxonaga Belgiya, Shveysariya, Avstriya, Fransiya va Germaniya davlatlarining zamонави, energiya tejovchi uskuna va jihozlari о'rnatilgan. 328 ta ish o'rni yaratilgan.

O'tgan yili bu yerda tayyorlangan 170 milliard so'mlik mahsulotning 59 foizi ichki bozorga, 41 foizi xorija sotilgan. Joriy yilda 7,5 million dollarlik mahsulot eksport qilinishi rejalashtirilgan.

Mahalliyashtirishni kengaytirish, boshqa tumanlarda ham shunday korxonalar tashkil etib, ish o'rinalarini ko'paytirish yuzasidan topshiriqlar berildi.

Prezident “Sam elektro servis” mas'uliyati cheklangan jamiyati mahsulotlarini ham ko'zdan kechirdi.

Korxona “Ideal” brendi ostida yiliga 260 ming dona elektr duxovka, 150 ming dona gaz plitalari va ular uchun qo’shimcha buyumlar ishlab chiqarish quvvatiga ega. Unga Germaniya, Turkiya va Xitoydan zamonaviy, energiya tejovchi uskuna va jihozlar keltirib o’rnatalgan.

2020-yilda umumiyligi 58 milliard so’mlik mahsulotlar ishlab chiqarilib, uning 32 foizi xorijga eksport qilingan. Joriy yilda 2 million dollarlik mahsulot eksport qilish ko’zda tutilgan.

Mahsulot turlarini kengaytirish, zamonaviy elektr texnikalari ishlab chiqarish va ularga xizmat ko’rsatish bo’yicha mutaxassislar tayyorlash muhimligi ta’kidlandi.

“Urgut” erkin iqtisodiy zonasida ayni paytda qiymati 90 million dollarlik 29 ta loyiha bo’yicha qurilish-montaj ishlari olib borilmoqda. Mazkur loyihalar ishga tushirilishi natijasida yana 2 mingdan ziyod yangi ish o’rni yaratiladi.

Bundan tashqari, qiymati 144 million dollarlik 21 ta qo’shimcha loyiha shakllantirilgan, qiymati 206 million dollarlik 33 ta istiqbolli loyihani amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

Davlatimiz rahbari iqtisodiy zona imkoniyatlardan samarali foydalanish, yangi va istiqbolli loyihalarni ko’paytirish yuzasidan mutasaddilarga topshiriqlar berdi.

Shu yerda samarqandlik nuroniyalar bilan muloqot bo’ldi.





Özbekiston Respublikasi Prezidentining
MATBUOT XIZMATI



Özbekiston Respublikasi Prezidentining
MATBUOT XIZMATI



Manba